



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th May 2025

TILNING TURLI SOHA VA FANLARDA ISHLATILISHI TERMINOLOGIK LUG‘ATLAR

Turgunova Buxalicha

Andijon davlat chet tillari instituti

“Ingliz tili va adabiyoti ” kafedra asissenti

buxalicha1993@gmail.com

Ismoilova Xusnidaxon

Andijon davlat chet tillari instituti

“Ingliz tili va adabiyoti ” fakulteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada tilning turli soha va fanlardagi roli, uning ilmiy tafakkur va ixtisoslashgan muloqot vositasi sifatidagi o‘rni, shuningdek, terminologik lug‘atlarning tuzilishi va amaliy ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: til, soha tili, termin, terminologiya, terminologik lug‘at, ilmiy til, kasbiy muloqot.

ABSTRACT:

This article analyzes the role of language in various professional and scientific fields, emphasizing its function as a means of specialized communication and scientific thinking. It also explores the structure and practical significance of terminological dictionaries, highlighting their role in standardizing scientific language and ensuring accurate interpretation.

Keywords: language, specialized vocabulary, terminology, terminological dictionary, scientific communication, field-specific language.

Har bir fan yoki kasbiy sohaning rivojlanishi o‘ziga xos til, ya’ni maxsus leksik qatlam –terminlarni shakllantirishni talab qiladi. Til jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

va ilmiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u har bir sohada o‘zining individual leksik tizimini yaratadi.

Til har qanday jamiyat hayotida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat aloqa vositasi, balki ilmiy, texnik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa ko‘plab sohalarda bilimlarni ifodalash, tarqatish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir fan yoki sohaga oid maxsus terminlar tili mavjud bo‘lib, bu til mazkur soha vakillariga o‘zaro aniq va tushunarli muloqot qilish imkonini beradi. Masalan, tibbiyot sohasida ishlatiladigan “gipertenziya”, “arterial bosim”, “onkologiya” kabi terminlar umumiy til vositalari bilan to‘liq ifodalab bo‘lmaydigan murakkab tibbiy tushunchalarni aniq va ixcham shaklda bayon etishga xizmat qiladi. Shuningdek, huquqshunoslik sohasida “delikt”, “prokuror”, “yuridik shaxs”, “fuqarolik javobgarligi” kabi atamalar huquqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglash va qonunchilik normalarini izohlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Texnika va muhandislik fanlarida esa o‘ziga xos texnik terminologiya mavjud: “generator”, “transformator”, “voltaj”, “rezistor” kabi so‘zlar bu soha vakillari uchun universal tushunchalardir. Bunday terminlar boshqa soha vakillari uchun begona yoki tushunarsiz bo‘lishi mumkin, ammo ularning mavjudligi sohaning rivojlanishida muhim hisoblanadi.

Shu o‘rinda terminologik lug‘atlarning o‘rni alohida ta’kidlanadi. Ular terminlarni tartibga soladi, ularning aniq va rasmiy ta’riflarini beradi, shuningdek, ko‘p hollarda tarjimalarini ham taqdim etadi. Terminologik lug‘atlar nafaqat ilmiy tadqiqotchilar uchun, balki tarjimonlar, o‘qituvchilar, talabalar va amaliyotchi mutaxassislar uchun ham zarur manbadir.

Masalan, “O‘zbek tilining iqtisodiyot terminlari lug‘ati” yoki “Huquqiy terminlar izohli lug‘ati” nafaqat milliy hujjatlarda yagona terminologik yondashuvni ta’minlaydi, balki xalqaro standartlarga yaqinlashishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ingliz, rus, fransuz tillaridan o‘zbek tiliga yoki aksincha tarjima qilish jarayonida bunday lug‘atlar kommunikativ aniqlik va ishonchlilikni kafolatlaydi. Terminologik lug‘atlarning yana bir muhim jihatlari shuki, ular soha tilini normalashtiradi ya’ni turli manbalarda turlicha ishlatiladigan terminlarning yagona, izchil va aniqlashtirilgan shaklini belgilaydi va tilning maxsus qatlamini – soha va fanlarga oid terminlarni tizimlashtirish, standartlashtirish va aniqlashtirish



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

uchun tuzilgan maxsus ilmiy-amaliy manba hisoblanadi. Ular terminlarni yagona ta'riflar asosida tartibga soladi va kasbiy muloqotni soddalashtiradi.

Bu esa ilmiy izlanishlarda chalkashliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Bugungi kunda elektron terminologik bazalar, onlayn lug'atlar va kompyuterlashtirilgan til resurslari ham keng rivojlanmoqda. Bu esa nafaqat lug'atlar bilan ishlashni osonlashtiradi, balki ularni doimiy ravishda yangilab borish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda o'zbek tilida yaratilgan terminologik lug'atlar orasida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

1. "O'zbek tilining iqtisodiyot terminlari lug'ati" (2007) — 5000 dan ortiq iqtisodiy terminlarni o'z ichiga oladi. Lug'at iqtisodiyot, moliya, bank, soliq tizimi, bozor munosabatlari kabi sohalarni qamrab oladi.
2. "O'zbek tilining huquqiy terminlari lug'ati" (2004) — 4000 dan ortiq huquqiy atamalar to'plangan. U fuqarolik, jinoyat, ma'muriy va xalqaro huquq sohasini qamrab oladi.
- "Tibbiyot terminlari izohli lug'ati" (2009, M. Akhmedova tahriri ostida) — 6000 ga yaqin tibbiyotga oid terminlar jamlangan.
3. "Texnika va muhandislik terminlari lug'ati" (2012) — 4500 dan ortiq texnik atamalarni qamrab oladi.

Bu lug'atlarning yaratilishida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Terminologiya qo'mitasi va nufuzli olimlar ishtirok etgan.

Ingliz tilida esa dunyo miqyosida nufuzli terminologik lug'atlar mavjud:

1. "Cambridge Dictionary of Linguistics" (2013, K. Allan) — tilshunoslik sohasiga oid 4000 dan ortiq termini izohlaydi.
- "Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics" (2010, J.C. Richards va R. Schmidt) — ingliz tili o'qitish metodikasi va amaliy tilshunoslik bo'yicha 3000 ga yaqin termini qamrab oladi.
2. "The ISO Online Browsing Platform (OBP)" — xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan yaratilgan va texnika, sanoat, sog'liqni saqlash kabi 20 dan ortiq sohani qamrab oluvchi yuz minglab terminlar mavjud bo'lgan onlayn terminologik platforma.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th May 2025

3. “The Dictionary of Human Resource Management” (2001, A. Wilkinson va T. Redman) — inson resurslari va menejmentga oid 1500 dan ortiq atamalarni o‘z ichiga oladi.

Bu lug‘atlar har bir fan va kasbiy sohada bilimlarni standartlashtirish, global kommunikatsiyani rivojlantirish va ilmiy almashinuvni tezlashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, terminologik lug‘atlar milliy va xalqaro ilmiy sohalarda bilimning izchilligini, tafakkur standartlarini va terminlarning yagona talqinini ta’minlash uchun zarur vositalardir. Ularning muntazam ravishda boyitilib va yangilanib borilishi zamonaviy ilm-fan va amaliy sohalarning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Tilning fan va sohalardagi ixtisoslashuvi uning hayotiy qudratini ko‘rsatadi. Terminologik lug‘atlar esa bu jarayonning asosiy vositasi bo‘lib, ilmiy muloqotni soddalashtiradi va standartlashtiradi. Shuning uchun ham zamonaviy tilshunoslikda terminologiyaning o‘rni beqiyosdir. Bunday lug‘atlar zamonaviy ilm-fan taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, A. (2018). Til va fanlararo kommunikatsiya. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. G‘afforov, B. (2020). Terminologiya asoslari. Samarqand: Ilm ziyo.
3. Akhmedova, M. (2017). “O‘zbek tilida tibbiyot terminlarining shakllanishi”. Filologiya masalalari, 2(4), 45–50.
4. Cambridge Dictionary of Linguistics (2022). Cambridge University Press.
5. Sager, J. C. (1990). A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins Publishing.